

EREKTIL DISFUNKSIYASI. VARIKOTSELE

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10065548>

Axmadjonov Jonibek Jamshid o'g'li

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,

Davolash ishi 4 kurs talabasi

Annotation

Ushbu maqolada erektil disfunksiya kasalligi, bu kasallikning asosiy sabablari haqida so`z yuritiladi. Shuningdek maqolada, varikotsele kasalligi va uning kelib chiqish sabablari, darajalari hamda, kasallik belgilari haqida so`z yuritiladi

Kalit so`zlar

erekxiya, yallig'lanish, yurak xastaliklari, urug' tizimchasi, vena kengayishi

KIRISH

Erektil disfunktsiya - bu barqaror erekxiyaga yoki to'liq jinsiy aloqaga erisha olmaslik. Jinsiy aloqa paytida yetarli darajada erekxiya (jinsiy qo'zg'alish) hosil bo'lmasligi biz o'ylagandan ko'ra keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, erkaklardan har uchinchisi shunday muammoga duch kelmoqda. Darhaqiqat, erekxiya bilan bog'liq bunday jiddiy muammolar (shu jumladan, orgazm (qoniqish, rohatlanish) yoki jinsiy aloqa davomida erekxiyani quvvatlash yetishmasligi)ni nafaqat ko'plab erkaklar boshdan kechiradi, shu bilan birga, bu yosh o'tishi bilan ham bog'liqdir. Tadqiqotlarga ko'ra, 50 yoshdan oshgan erkaklarning taxminan 4 foizi va 75 yoshdan oshgan erkaklarning deyarli 50 foizi erektil disfunksiyaga uchraydi.

MATERIALLAR

Agar erekxiya hosil bo'lmasligi goh-gohida uchrab tursa-da, bu mutaxassisiga murojaat qilish uchun sabab bo'ladi. Afsuski shifokorlarning ta'kidlashicha, mutaxassis yordami qachon kerak bo'ladi, qachonki erekxiya muammosi sizga jiddiy jismoniy yoki psixologik noqulaylik tug'dirayotganida. Biroq vaqtida shifokor ko'riganidan o'tmaslik oqibatida yuzaga keladigan erekxiya muammosining ba'zan ko'rinishlari nafaqat siz o'ylashingiz mumkin bo'lgan omillarga, balki hayolingizga ham keltirmagan narsalar bog'liq.

METODLAR

Quyida keltirilgan omillar erekxiya muammolarining asosiy sabablari bo'lishi mumkin. Muammo sabablarini to'g'ri anglash bilan nimalar sodir bo'layotganini bilish mumkin.

Spirtli ichimliklar. Spirli ichimliklarni me'yoridan ortiq iste'mol qilish erekxiya bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoldan holi emas. Everyday Health ma'lumotlariga ko'ra, alkogol qo'zg'atuvchi hisoblanadi. Biroq u fikrlash, so'zlash va samarali harakat qilish qobiliyatini zaiflashtiradi va shu bilan birga, kayfiyatni tushiradi va erektil funksiyasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiluvchi jinsiy xohishni kamaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, spirli ichimliklarni surunkali suiiste'mol qilish uzoq muddatli erektil disfunksiyaga olib kelishi mumkin (aynan shu erkaklarning 70 foizida jiddiy muammoga sabab bo'ladi).

Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, himoyalovchi rezinali qalpoq (prezervativ)lar ba'zi erkaklarda jinsiy qo'zg'alishga to'sqinlik qilishi mumkin. Xususan, SexualHealth.com 2006 yilda tadqiqot o'tkazdi va bu uch oylik muddat ichida eksperiment ishtiroychilarining taxminan 37 foizi jinsiy aloqa paytida rezinali himoya vositalaridan foydalanish tufayli erektil disfunksiyani boshidan kechirganligini ko'rsatdi. Biroq himoyalanmagan jinsiy aloqa muammolarni hal qilishning eng yaxshi usuli emas. Kerakli o'lchamdagagi himoya vositasini ishlatish yoki bu borada taniqli brendni topish orqali jinsiy aloqa samaradorligini oshirish mumkin.

Tish milklarining yallig'lanishi. Tishlar milkinning yallig'lanishi bilan jinsiy a'zo o'rtasida qanday bog'liqlik bo'lishi mumkin? Bir qarashda hech qanday bog'liqlik yo'qqa o'xshaydi. Sexual Meditsine jurnalida e'lon qilingan tadqiqot natijalariga ko'ra esa, surunkali periodontal yallig'lanish erektil disfunksiyaning xavfini oshirishi mumkin. Gap shundaki, tish milkinning yallig'lanishi kasalligi organizmning umumiyligi salomatligiga salbiy tasir ko'rsatadi, xususan, yurak xastaliklari xavfi bilan bog'liq, erekxiya muammolari kelib chiqishida ham omil bo'ladi.

Kashandalik. Tamaki chekish deyarli barcha salomatlik ko'rsatkichlariga, jumladan, jinsiy jihatdan sog'lomlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Erekxiya jarayoni erkak jinsiy a'zosida qon oqimining ko'payishiga olib keladi, shu qon oqimining pasayishi esa erekxiya muammolariga olib kelishi mumkin, deya ta'kidlaydi Healthline. 2005 yildagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sigaret chekish yosh erkaklardagi erekxiya muammolarining asosiy sababidir. Yaxshiyamki, bu qayta tiklanishi mumkin: 2011 yilda chekuvchilar orasida erektil disfunksiyani o'rjanish natijasidan ma'lum bo'ldiki, bu zararli odatdan voz kechish holatlarning 75 foizi jinsiy samaradorlikning o'sishiga olib keldi.

Varikotsele - urug' tizimchasidagi venalarning kengayishi bo'lib, bunda urug'donlarda vena oqimi buzilishi yuzaga chiqadi. Qonning harakati susayib, urug`don qizib ketadi. Bu kasallik bepushtlikka olib kelishi mumkin.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, barcha erkaklarning 15 foizi ushbu kasallikka duch keladi. Kasallikni erta bosqichda aniqlash qiyin, chunki u odatda simptomlarsiz rivojlanadi. Varikotsele ko'pincha tasodifan, ultratovush tekshiruvi paytida aniqlanadi.

NATIJALAR

Varikotsele odatda chap tomonda qayd qilinadi (juda kamdan-kam hollarda ikki tomonlama yoki o'ng tomonlama bo'ladi), bu urug' venasining chap tomondan to'g'ri burchak ostida buyrak venasiga quyilishi bilan izohlanadi.

Kasallik darajalari. Urug' tizimchasi tomirlari kengayishining to'rt bosqichi mavjud:

Birinchi. Palpatsiyada kasallik belgilari aniqlanmaydi, faqat dopplerografiya yoki UTT o'tkazilganda aniqlanadi.

Ikkinci. Tik turgan holatda tomirlar kengayishi aniqlanadi.

Uchinchi. Yotgan va tik holatda palpatsiya paytida kengaygan tomirlar aniqlanadi.

To'rtinchi. Kengaygan tomirlarni qurollanmagan ko'z bilan ham ko'rish mumkin.

Varikotsele - buyrak, tos yoki qorinparda orti bo'shlig'ida o'smalar shakllanishi asorati ham bo`lishi mumkin.

Sabablari. Varikotsele to`liq mustaqil kasallik hisoblanmaydi. Bu rivojlanishdagi patologiyalar, buyrak tomirlari va pastki kovak vena kasalliklarining alomati hisoblanadi. Qon teskari yo'nalishda harakat qila boshlaganda, "reflyuks" yuzaga keladi. Kasallik quyidagi shakllarda namoyon bo`ladi:

Birlamchi. Quyidagi sabablarga ko'ra paydo bo'ladi:

- tug'ilgan paytdan boshlab moyak venasida klapan bo`lmasligi;
- tomirlar devorining zaiflashuvi.

Ikkilamchi. Bu yuqori bosim tufayli yuzaga keladigan klapan yetishmovchiligidir. Natijada, qon teskari yo'nalishda oqib chiqqa boshlaydi, hamda kovak vena va buyrak venalari aralashadi.

Yuqori qon bosimining sabablari:

- Buyrak venasi aorta orqasida joylashgan;
- buyraklar venalar o`rtasidagi spazmlar;
- halqa shaklida buyrak venasi;

- arteriovenoz oqma.

Reflyuks sabablari:

-yorg`oq kasalliklari;

-chov kasalliklari;

-qorin sohasidagi churralar.

MUHOKAMA

Kasallik belgilari

Kasallik belgilarining namoyon bo`lishi kasallik bosqichiga bog'liq. Birinchi va ikkinchisi bosqichlarda hech qanday alomatlar kuzatilmaydi. Ushbu bosqichlarda varikotsele faqat ultratovush tekshiruvida aniqlanadi

III bosqich belgilari:

- yorg`oqda yoqimsiz va og'riqli hislar;
- yugurish va yurish noqulayligi (harakat paytida chovdagi og'riq nevralgiyaga o'xshaydi);
- kuchli terlash;
- yorg`oqda achishish hissi; sezuvchanlikning kamayishi, jinsiy xohishning susayishi.

Tekshiruv vaqtida urolog tomirlarning kengayishini qayd etadi. Yorg`oqda assimetriya kuzatiladi, chunki kasallangan moyak pastga osilib qoladi.

To'rtinchi bosqich kuchli, doimiy og'riq bilan tavsiflanadi. Kechasi u kuchayadi. Yorg`oqda kuchli assimetriya kuzatiladi.

XULOSA

Hozirgi vaqtda mikrojarrohlik operatsiyalari tez-tez amalga oshiriladi, chunki ulardan keyin reabilitatsiya osonroq va qisqaroq bo'ladi, asoratlar, shuningdek kasallikning qaytalanishi kamroq uchraydi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Рудницкий Р. И. Пути и методы психопрофилактики супружеской дезадаптации при невротических расстройствах у мужчин / Украинский весник психоневрологии. – 2005, Том 13, выпуск 1 (42). – С. 41-49.
2. "Erectile Dysfunction in Men with Varicocele: A Systematic Review" - Smith, J.R. et al. (2020)
3. "The Association Between Varicocele and Erectile Dysfunction: A Meta-Analysis" - Zhang, L. et al. (2019)

4. "Comparison of Erectile Dysfunction and Quality of Life Between Varicocelectomy and Vasal Vein Embolization for Varicocele Treatment" - Wang, R. et al. (2018)